



MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASHNING INTEGRAL BALLI TIZIMI

Tursunhodjayeva Sh.Z.
Toshkent moliya instituti

Annotatsiya: Maqolada "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy risklari tahlili amalga oshirilgan bolib, unda likvidlik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari asosida integral balli tizim orqali baholangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy risk, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, integral balli tizim.

INTEGRAL SCORE SYSTEM OF FINANCIAL RISK ASSESSMENT

Tursunhodjayeva Sh.Z.
Tashkent Financial Institute

Annotation: The article provides an analysis of the financial risks of the Kokand Mechanical Plant, which is assessed using an integrated scoring system based on liquidity and financial stability.

Keywords: financial risk, liquidity, financial stability, integrated scoring system.

1. Kirish.

Analitik hisob-kitoblar natijalarini umumlashtirganda, ba'zida korxonalariga ta'sir etuvchi moliyaviy risk darajasiga umumiy baho berish qiyin. Buning sababi shundaki, uni tavsiflash uchun ko'plab ko'rsatkichlardan foydalanishga tog'ri keladi. Ko'pgina ko'rsatkichlar uchun standart qiymatlar mavjud emas yoki tavsiya etilgan standartlar darajasida farqlar mavjud. Bundan tashqari, tahlil natijasida individual ko'rsatkichlarning ko'p yo'nalishli dinamikasi va ularning haqiqiy qiymatlarining belgilangan standartlardan chetga chiqishi aniqlanadi.

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun moliyaviy holatni reyting baholash usuli, ya'ni moliyaviy risklarni integral balli tizimi orqali baholashni amalga oshirish mumkin. Bunda moliyaviy holatni baholashning ko'p mezonli usuli bir mezonga tushiriladi. Ushbu tizimni qo'llash natijasida moliyaviy jarayonlarning xilma-xilligi, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining ko'pligi, ularning tanqidiy baholari darajasidagi farqlar, ulardan koeffitsientlarning haqiqiy qiymatlaridan chetga chiqish darajasi va natijada korxonalarining moliyaviy barqarorligini umumiy baholashda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hisobga olgan holda ball qo'yiladi va moliyaviy darajasi ta'siriga ko'ra toifalarga ajraladi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Kredit skoringi texnikasi birinchi bo'lib 40-yillarning boshlarida amerikalik iqtisodchi Durand (1941) tomonidan taklif qilingan. Ushbu texnikaning mohiyati korxonalarini moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining haqiqiy darajasiga va har bir ko'rsatkichning ekspert baholari asosida ball bilan ifodalangan reytingiga qarab risk darajasi bo'yicha tasniflashdan iborat bo'lgan.

Aynan korxonalarda moliyaviy risk ta'sirini e'tiborga olgan holda, nisbiy ko'rsatkichlar asosida moliyaviy barqarorlik riskini baholash uchun Dontsova va Nikiforova (2003) moliyaviy holatning asosiy ko'rsatkichlari reytingiga asoslangan balli tizimni qo'llashni taklif etishdi. So'ng, valyuta va kredit riskini baholash (Tall, 2004) va korxonaning moliyaviy risklarini har tomonlama baholash balli kompleks baholash modellariga asoslangan usuli ishlab chiqildi (Arxipova, 2014).

Korxonalarda moliyaviy risklilik darajasini baholash uchun kompleks yondashuv sifatida integrall balli tizimdan foydalanish samaradorligi yuqori hisoblanadi, chunki bunda

barcha moliyaviy risklar vujudga kelish manbalari yaqqol namoyon bo'lish bilan karakterlanadi (Ermasova, 2015).

Bundan tashqari, korxonaning moliyaviy risk darajasini reyting baholashda bir qator olimlarning (Sheremet, Sayfulin, Negashev, 2002; Kovalev, Volkova, 2004; Savitskaya, 2008) ishlab chiqqan metodlar ham e'tiborga loyiqdir.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada moliyaviy tahlil metodlari, shuningdek, likvidlik (joriy, oraliq, mutloq) va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlaridan va moliyaviy risklarni integral baholash tizimidan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Metodikaning mohiyati korxonalarni moliyaviy risk darajasi bo'yicha tasniflashdan iborat, ya'ni. har qanday tahlil qilinadigan korxonaning likvidlik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining haqiqiy qiymatlari asosida "to'plangan" ballar soniga qarab ma'lum bir sinfga kiritish mumkin. Bu korxonaning umumiy moliyaviy holatini risklilik darajasiga ko'ra baholashga imkon beradi. Bu baholash mezonni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ishlab chiqiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Moliyaviy risklarni baholashning integral balli tizimi (Dontsova, 2004)

Moliyaviy holat ko'rsatkichi	Ko'rsatkich reytingi	Mezon		Mezonni pasaytirish shartlari
		Yuqori	Quyi	
Mutloq likvidlik (L ₁)	20	0,5 va yuqori - 20 ball	0,1dan kam - 0 ball	0,5 qaraganda xar 0,1 punktga past bo'lsa balldan olish 4 балла
Oraliq likvidlik (L ₂)	18	1,5 va yuqori -18 ball	1 dan kam - 0 ball	1,5 qaraganda xar 0,1 punktga past bo'lsa balldan olish 3 балла
Joriy likvidlik (L ₃)	16,5	2 va yuqori - 16,5 балла	1 dan kam - 0 ball	2 qaraganda xar 0,1 punktga past bo'lsa, 1,5 balldan olish
Moliyaviy mustaqillik (U ₁)	17	0,5 va yuqori - 17 ball	0,4 dan kam - 0 ball	0,5 qaraganda xar 0,1 punktga past bo'lsa, 0,8 balldan olish
O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik (U ₂)	15	0,5 va yuqori - 15 ball	0,1 dan kam - 0 ball	0,5 qaraganda xar 0,1 punktga past bo'lsa, 3 balldan olish
Moliyaviy barqarorlik (U ₃)	13,5	0,8 va yuqori - 13,5 балла	0,5 dan kam - 0 ball	0,8 qaraganda xar 0,1 punktga past bo'lsa, 2,5 balldan olish

Bu jadvalga ko'ra, hisoblash natijalari quyidagicha toifalarga ajraladi:

1-toifa (100-97 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonalar mutloq barqaror hamda mutloq to'lovga layoqatli hisoblanadi. Bu korxonada o'z majburiyatlarini bajarishga yetarli mablag'lari mavjud;

2-toifa (96-67 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonalar normal moliyaviy holatda va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk hududida joylashadi. Ularning moliyaviy barqarorligi umuman maqbul darajaga yaqin, ammo ba'zi koeffitsientlarda kechikishlar mavjud. Bunday tashkilotlar bilan ishlashda deyarli hech qanday xavf yo'q;

3-toifa (66-37 ballar) – moliyaviy ahvolini qoniqarli deb baholash mumkin bo'lgan tashkilotlar. Tahlil natijasida individual koeffitsientlarning zaifligi aniqlandi. Muammoli korxonalar. Bu yerda mablag'larni yo'qotish riski deyarli yo'q, lekin foizlarni to'liq olish shubhali ko'rinadi;

4-toifa (36-11 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonalar moliyaviy holati nobarqaror. Ular qoniqsiz kapital tuzilishga ega va ularning to'lov qobiliyati maqbul qiymatlarning pastki chegarasida. Kreditorlar mablag'lari va foizlarini yo'qotish riski;

5-toifa (10-0 ballar) – bu guruhga kiruvchi korxonalar krizisli moliyaviy holatda. Moliyaviy risk darajasi baland, deyarli to'lovga qodir bo'lmagan tashkilotlar. Ular bilan munosabatlar juda xavfli.


Shunday qilib, korxonalar moliyaviy risklarini integral tizimidan foydalangan holda baholashda to'lovga layoqatlilik riskini o'rganish talab etiladi. Korxonalar to'lovga layoqatlilik quyidagi formulalar orqali hisoblanadi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Korxonalar to'lov layoqati ko'rsatkichlari (Vahobov, 2013)

Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh:
Mutloq to'lovga layoqatlilik ko'effitsienti	$K_M = \frac{PM + QQ}{QMM} \quad (1)$	PM-Pul mablag'lari; QQ-qimmatli qog'ozlar; QMM-qisqa muddatli to'lov majburiyatlari
Oraliq to'lovga layoqatlilik ko'effitsienti	$K_o = \frac{PM + QQ + DM}{QMM} \quad (2)$	DM-debitorlik majburiyatlari
Joriy to'lovga layoqatlilik ko'effitsienti	$K_o = \frac{PM + QQ + DM + TMZ}{QMM} \quad (3)$	TMZ-tovar-moddiy zaxiralar

Quyidagi rasmda o'rganilayotgan korxonalarimizning to'lovga layoqatlilik riski ko'rsatkichlariga baho berishimiz mumkin. (1-rasmga qarang)



1-rasm. To'lovga layoqatlilik riski ko'effitsienti tahlili (%) (Vahobov, 2013)

Bu yerda, mutloq to'lovga layoqatlilikning me'yoriy darajasi 0,2% va 0,5%, oraliq to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichi 0,7% va 1%, hamda joriy to'lovga layoqatlilikning me'yoriy darajasi 1,5% va 2,5% atrofida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Grafikdan ko'rinib turibdiki, "Qo'qon mexanika zavodi" AJ larining to'lovga layoqatlilik riski ko'rsatkichlari tushib ketgan. Bu korxonalar, o'z majburiyatlarini bajarishda aktivlari yetishmay borayotganini va bu to'lovga layoqatlilik riskini keltirib chiqaradi. Korxonalar o'rganilayotgan yillar davomida barcha to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari belgilangan me'yor darajasidan past bo'lgan. Misol uchun, joriy to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan layoqatlilik ko'rsatkichi 1,5% ni tashkil etadigan bo'lsa, bu korxonalar faqatgina 2019-yilda ushbu me'yor darajasiga yetmagan. Qolgan yillarda ham optimal darajada bo'lmasada, joriy majburiyatlarni qoplashga joriy aktirlari yetarli darajada bo'lgan. Umumun olganda, korxonalar to'lovga layoqatsiz hisoblanib, to'lovga layoqatlilik risk darajasi balandligidan dalolat beradi;

Keyingi qadam, korxonalar moliyaviy riskini integral balli tizimda baholashda moliyaviy mustaqillik, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik va moliyaviy barqarorlik riskini baholash hisoblanadi. O'z mablag'lari yetarli bo'lgan, real sektor korxonasi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga qodir moliyaviy barqaror korxonalar hisoblanadi, bu esa, moliyaviy risklar darajasini past bo'lishiga olib keladi.

1. Moliyaviy mustaqillik ko'effitsienti quyidagicha aniqlanadi (Vahobov, 2013):

O'z mablag'larining manbalari (480 satr)

(4)

Balans jami (780 satr)

2. O'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

O'z mablag'larining manbalari (480 satr) – Uzoq muddatli aktivi(130 satr)

(5)

Joriy aktivlar (390 satr)


3. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti quyidagi tartibda aniqlanadi:

O'z mablag'larining manbalari (480 satr) + Uzoq muddatli majburiyatlar (490 satr)

(6)

Balans jami (780 satr)

Biz o'rganayotgan aksiyadorlik jamiyatlarda bu ko'rsatkichlar quyidagi tenglikka ega bo'ldi (2-rasmga qarang)



2-rasm. Real sektor korxonalarining moliyaviy mustaqillik riski, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik va moliyaviy barqarorlik riski tahlili(%)¹

Bu yerda, agar moliyaviy mustaqillik koeffitsienti eng past me'yor darajasi 0,4% ni, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik 0,1% ni va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichi 0,6%ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkichlardan baland bo'lsa, moliyaviy holatini yahshilanganligidan dalolat beradi. Shundan biz o'rganayotgan aksiyadorlik jamiyatlari ushbu ko'rsatkichlardan quyidagilar ma'lum bo'ldi, 2016-yilda moliyaviy holati boshqa yillarga qaraganda barqaror bo'lgan bo'lsa, 2017-2018 yillarda o'zgarishsiz qolgan va 2019-yilga kelib korxonalar moliyaviy risk darajasi ohib, korxonalar no-barqaror holatga kelgan. Jumladan, moliyaviy mustaqillik riski 2016-yilda me'yor darajasidan yuqorida 0,65% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 3%ga tushib ketgan. Bu natija, korxonalar moliyaviy holati qarz majburiyatlaridan kuchli bog'liqligini va moliyaviy risk darajasi yuqoriligini bildiradi;

Shunday qilib, real sektor korxonalarining moliyaviy risklarini integral balli tizimda baholash natijalari quyidagi jadvalda aks ettirildi:(3-jadvalga qarang)

3-jadval.

Real sektor korxonalarini integral balli tizim orqali moliyaviy risklarini baholash²

Ko'rsatkich	"Qo'qon mexanika zavodi" AJ			
	2016	2017	2018	2019
L ₁	0,01	0,08	0,01	0,00
Ball	0	0	0	0
L ₂	1,47	0,79	0,62	0,46
Ball	18	0	0	0
L ₃	1,90	1,55	1,59	1,34
Ball	15	10,5	10,5	6
U ₁	0,60	0,45	0,45	0,35
Ball	17	17	17	16,2
U ₂	0,47	0,35	0,37	0,24
Ball	15	12	12	6
U ₃	0,61	0,45	0,45	0,35
Ball	8,5	0	0	0
Umumiy ball	73,5	39,5	39,5	28,5
Toifa	2	3	3	4

¹ Korxonalar moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

² Muallif tomonidan hisoblab chiqildi.

Demak, yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan shu ma'lum bo'ldiki, "Qo'qon mexanika zavodi" AJ 2016-yilda moliyaviy holati boshqa yillarga qaraganda barqaror bo'lib, 2 toifa hududiga kirgan. 2017 va 2018-yillarda moliyaviy risk darajasi yuqori bo'lgan va korxonada 3-toifaga kirgan bo'lsa, 2019-yilga kelib, barcha ko'rsatkichlar yomonlashuvi natijasida korxonada 4-toifa guruhiga tushib ketib nobarqaror holatga kelgan.

5. Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlil va natijalardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin bo'ldi: - korxonalarda moliyaviy risk darajasini baholashda integral balli tizimlardan foydalanish, korxonada mavjud kamchiliklarni yaqqon namoyon etishi bilan tasniflanadi;

- reyting va balli tizimni qo'llash amaliyotini samaradorligi bir qator olimlar tomonidan ta'kidlangan;

- moliyaviy risklarni integral balli tizimdan foydalanib baholashda korxonalar risklilik va moliyaviy barqarorlik darajasiga ko'ra 5 toifaga bo'linadi, bunda 1 toifa mutloq barqaror va risksiz korxonalar kiritilsa, har bir toifa pasayishi korxonalarning moliyaviy holatining yomonlashganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, ushbu metodologiya kompaniyaning moliyaviy holatining ayrim jihatlarini hisobga olmaydi. Tahlil jarayonida aniqlangan tendentsiya salbiy bo'lib, joriy aktivlar tarkibida xom ashyo ulushini kamaytirish nuqtai nazaridan mulk tuzilishini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Korxonani boshqarish uchun, salbiy tendentsiyalarni o'z vaqtida aniqlash uchun, ko'rib chiqilgan metodologiyani tashkilotning moliyaviy barqarorligini har tomonlama baholashga imkon beradigan boshqa yondashuvlar bilan birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Адабиётлар/Литература/Reference:

Durand D. (1941) Risk Elements in Consumer Instalment Financing. Pp. xx, 163. New York: National Bureau of Economic Research.

Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. (2013) "Moliyaviy va boshqaruv tahlili" Toshkent. 336-342-bet (Vahobov A.V., Ibrahimov AT, Ishonkulov N.F. (2013) "Financial and Management Analysis" Tashkent. Pp. 336-342)

Архипова Д.В. (2014) Модели оценки и прогнозирования риска финансовой несостоятельности предприятия. Science time, Казань: Казанский федеральный университет, 16-23 с. (Arkhipova D.V. (2014) Models for assessing and predicting the risk of financial insolvency of an enterprise, Science time, Kazan: Kazan Federal University, 16-23 p.)

Донцова Л.В., Никифорова Н.А. (2003). Анализ финансовой отчетности. М.: Дело и Сервис. 336 с. (Dontsova L.V., Nikiforova N.A. (2003) Analysis of financial statements. М.: Business and Service. 336 p.)

Ермасова Н.Б. (2015) Финансовый менеджмент. Учебное пособие для вузов. М.: Юрайт. (Ermasova N.B. (2015) Financial management. Textbook for universities. М.: Yurayt.)

Савицкая Г.В. (2008) Анализ хозяйственной деятельности предприятия. 4-е изд. М.: Инфра-М. (Savitskaya G.V. (2008) Analysis of the economic activity of the enterprise. 4th ed. М.: Infra-M.)

Таль Г.К. (2004) Антикризисное управление: Учеб. пособие: В 2 т. Экономические основы. М.: Инфра-М. 1027 с. (Tal G.K. (2004) Anti-crisis management: Textbook. allowance: In 2 volumes. Economic foundations. М.: Infra-M. 1027 p.)

Шеремет А.Д., Сайфулин Р.С., Негашев Е.В. (2002) Методика финансового анализа. 3-е изд. М.: Инфра-М (Sheremet A.D., Saifulin R.S., Negashev E.V. (2002) Methodology for financial analysis. 3rd ed. М.: Infra-M.)